BOJXONA NAZORATI VA RASMIYLASHTIRUVINI TAKOMILLASHTIRISH

To‘ychiboyev Shohnur Dilshod o‘g‘li
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
huzuridagi Bojxona qo‘mitasi
Bojxona instituti 4-kurs kursanti
Tel: +998972555205
e-mail: toychiboyevshohnur@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23350179

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi 174-son Farmoni choralarining xalqaro andozalarga mosligini ochib berish, ularni amalga oshirish xavflarini asoslash va takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish. Normativ hujjatlarning kontent-tahlili va qiyosiy-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi.
Kalit so‘zlar: bojxona nazorati, bojxona rasmiylashtiruvi, xavflarni boshqarish, bojxona auditi, vakolatli iqtisodiy operator, raqamlashtirish.

Аннотация. Раскрыть соответствие мер, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 27 августа 2026 года № 174, международным стандартам, обосновать риски, связанные с их реализацией, и разработать направления совершенствования. В исследовании использованы методы контент-анализа нормативно-правовых актов и сравнительно-правового анализа.
Ключевые слова: таможенный контроль, таможенное оформление, управление рисками, таможенный аудит, уполномоченный экономический оператор, цифровизация.

Abstract. To assess the compliance of the measures stipulated in Decree No. 174 of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 27, 2026, with international standards, substantiate the risks associated with their implementation, and develop recommendations for improvement. The study employed content analysis of regulatory legal acts and comparative legal analysis.
Keywords: customs control, customs clearance, risk management, customs audit, authorized economic operator, digitalization.

Dengizga chiqish yo‘li bo‘lmagan davlat uchun tashqi savdoning tezligi ko‘p jihatdan chegarada belgilanadi. Asosiy yo‘qotish yuk harakatida emas, rasmiylashtiruv va navbat sababli to‘xtab turishda yuz beradi [PF-174 2026: 1-ilova, 2-bob]. 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son Farmon 2030-yilgacha rasmiylashtiruvning 60 foizini inson ishtirokisiz amalga oshirish, rasmiylashtiruv vaqtini ikki barobar qisqartirish va bojxona tushumlarining YaIMdagi ulushini kamida 4,4 foizga yetkazishni belgilaydi [PF-174 2026: 1-band].

Yengillashtirish va fiskal barqarorlik bir vaqtda talab qilinmoqda, ammo Strategiyaning o‘zi tan olgan zaif bo‘g‘inlar, ya’ni oldindan taqdim etiladigan ma’lumot sifatining pastligi, idoralararo hamkorlik ko‘rsatkichining 66,6 foizda qolgani va bojxona audit hamda xavflarni boshqarish bo‘yicha kadrlar salohiyati yetishmasligi aynan shu choralar tayanadigan asosdir [PF-174 2026: 1-ilova, 2-bob]. Demak, qo‘yilgan maqsad va uni amalga oshirish shartlari o‘rtasida qarama-qarshilik mavjud.

Tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat:

1. Choralarning mosligi. Yuk kelguncha deklaratsiya berish, oldindan qarorlar, bojxona auditi va vakolatli iqtisodiy operatorlar uchun qulayliklar JST Savdoni yengillashtirish bitimining 7.1, 3, 7.5 va 7.7-moddalariga hamda Kyoto konvensiyasi tamoyillariga mos keladi [WTO 2014: 7-modda; WCO 1999]. Farmonning 4-, 5- va 7-bandlari shu andozaning milliy shaklidir [PF-174 2026].
2. Joriy holat. Masofaviy rasmiylashtiruvdan keyin o‘rtacha vaqt 3 barobar qisqargan, 2025-yilda tushum 76,2 trln so‘mga yetib 21 foiz oshgan, deklaratsiyalarning 79 foizi soddalashtirilgan, 10 foizi inson ishtirokisiz o‘tmoqda, Jahon banki subindikatorida o‘rin 140 dan 74 ga ko‘tarilgan [PF-174 2026: 1-ilova, 2-bob]. Biroq qolgan kamchiliklar texnikada emas, ma’lumot sifati va idoralar o‘rtasidagi bog‘lanishdadir.
3. Ma’lumot sifati. Avtomatik rasmiylashtirish (7-band) deklarant ma’lumotining to‘g‘riligiga tayanadi. Aniqlik bo‘yicha deklarant reytingini yuritib, uni xavf darajasiga bog‘lash taklif etiladi. Aniq ma’lumot bergan operator tezroq o‘tadi.
4. Bojxona auditi. Qiymatni tovar chiqarilgandan keyin nazorat qilish 2027-yil 1-yanvardan boshlanadi [PF-174 2026: 3-band]. Auditorlar tayyorgarligi yetarli bo‘lmaguncha tartibni dastlab xavfi past operatorlar bilan sinash va aniqlangan qo‘shimcha to‘lovlar ulushini choraklik kuzatish maqsadga muvofiq.
5. Qarorlar izohi. Inson ishtirokisiz rasmiylashtirish ulushi 60 foizga yaqinlashganda deklarant tizim qarori sababini ko‘rishi va uni shikoyat qila olishi kerak. Farmon matnida bu tartib alohida ko‘rsatilmagan. Yagona standartni Raqamli texnologiyalar markazi belgilashi mumkin [PF-174 2026: 10-band].
6. Natijani o‘lchash. Maqsad importda 2 soat, eksportda 30 daqiqa qilib belgilangan, ammo boshlang‘ich mutlaq qiymat keltirilmagan. JBTning vaqtni o‘rganish uslubiyotini (TRS) muntazam qo‘llash maqsadga yetilganini mustaqil tekshirishga imkon beradi [WCO 2018].

Xulosa o‘rnida Farmon yo‘nalishi xalqaro talablarga mos ekanligini aytish mumkin. Ammo uning samarasi ko‘ra uch shartga bog‘liq. Bular ma’lumot sifati, auditorlar tayyorgarligi va idoralar tizimlarining o‘zaro ulanishidir. Ushbu shartlarsiz 60 foizlik avtomatik rasmiylashtirish vaqtni qisqartirsa ham, tushum xavfini oshirishi mumkin. Yangi holat shundaki, bojxona islohotining natijasi bojxonaning o‘ziga emas, boshqa idoralarning ishtirokiga ham bog‘liq bo‘lib chiqdi. Buni 2027–2028-yillar ma’lumotlari asosida miqdoriy tekshirish keyingi tadqiqot vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son Farmoni va 1-ilova. [PF-174 2026]
2. World Customs Organization. Revised Kyoto Convention. Brussels, 1999. [WCO 1999]
3. World Trade Organization. Agreement on Trade Facilitation. Geneva, 2014. [WTO 2014]
4. World Customs Organization. Time Release Study Guide. Brussels, 2018. [WCO 2018]